ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK NIGOHIDA TIL TALQINI

Sabirova Nilufar Abdullayevna, *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada til bilan madaniyatning o‘zaro munosabati haqida fikr yuritilgan. Til bilan madaniyatning o‘zaro munosabati xususida gapirganda “madaniyat” tushunchasi xususida batafsil to‘xtalish zarur. Ushbu tushunchani talqin qilish yuzasidan ko‘plab urinishlar mavjud.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, lingvomadaniyat, antropologik tadqiqotlar, xususiyat, semiotik yondashuv, tafakkur

Til bilan madaniyatning o‘zaro munosabati xususida gapirganda “madaniyat” tushunchasi xususida batafsil to‘xtalish zarur. Ushbu tushunchani talqin qilish yuzasidan ko‘plab urinishlar mavjud. Masalan, G.V.Yelizarova “madaniyat” tushunchasini intuitiv jihatdan shaffof bo‘lib tuyuladigan aksiomatik tushunchalar qatoriga kiritadi.Biroq bunday kompleks tushunchaga ta’rif keltirish nihoyatda murakkab holdir. Madaniyatning “Madaniyat - bu bizning bu yerda qanday yashashimizdir” [1] kabi qaysidir bir jihatga to‘xtalmasdan ushbu tushunchaning barcha qirralarini qamrab olishga intiladigan ta’riflar ham mavjud. Madaniyat ta’rifiga oid boshlang‘ich yondashuv madaniyat bu barcha jamiyatlarga xos bo‘lgan gomogen holatdir, degan tasavvurga asoslangan. Jamiyatdagi tafovutlar ularning mohiyati, mazmunidagi farqlar sifatida emas, balki ayni bir holat - madaniyatning ravnaqi darajasidagi tafovutlar sifatida talqin etilgan. Yovvoyilikdan sivilizatsiyaga tomon taraqqiyot o‘lchov mezoni bo‘lib xizmat qilgan. Jamiyat o‘z tasarrufida sivilizatsiyaning qanchalik ko‘proq belgilariga ega bo‘lsa, u madaniy jihatdan shunchalik ko‘p taraqqiy etgan deb hisoblangan. Biz E.Teylor asarlarida madaniyatni tushunishga nisbatan shunday yondashuvning eng yorqin ifodasini uchratamiz. Uning ancha keng tarqalgan madaniyat ta’rifi madaniyatni bilim, e’tiqod, san’at, axloq, qonunlar, urf-odatlar va insonning jamiyat a’zosi sifatida orttiradigan boshqa har qanday belgilari va odatlarini o‘z



ichiga oladigan yaxlit kompleks hodisa sifatida ifodalaydi. Lekin bunday nuqtai nazar bilan kelishish qiyin: sivilizatsiya va madaniyat - bir-biridan ancha farq qiladigan tushunchalardir. Bir holatni boshqa bir holat orqali baholash mumkin emas, chunki ushbu har ikkala tushuncha turlicha ma’noli hollarga tegishlidir.

Madaniyat ta’rifiga nisbatan kognitiv yondashuv shundan iboratki, madaniyat shaxs tomonidan o‘zlashtira borilishi bilan fikriy voqeliklar, tuzilmalar va jarayonlar atamalarida ko‘rib chiqilishi mumkin. Madaniyat tushunchasiga nisbatan bunday yondashuv madaniyatga bilim va bilish jarayoni sifatida alohida e’tibor beradi va kognitiv deb ataladi (V.Gudenaf).

Semiotik yondashuv madaniyatning, birinchi navbatda, dunyo in’ikosining keyinchalik muloqot vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan belgilar tizimi sifatida tushunishga asoslanadi (K.Levi-Stross). Lekin keltirilgan ta’riflarning hech birini to‘laqonli deb bo‘lmaydi, chunki ular madaniyatning ko‘p qirrali tomonlarining faqat bir jihatini ochib beradi, ular madaniyatga nisbatan “yondashish” bilan cheklanadi va uni yaxlit holda ko‘rib chiqmaydi.

Til bilan madaniyatning o‘zaro munosabatlarini talqin etish nihoyatda murakkab ish. Til, tafakkur, madaniyat - bular har doim harakatda, o‘zgarishda bo‘ladigan hodisalardir. Ularni o‘rganish uchun ularni to‘xtashish zarur, lekin bu endi o‘sha “til”, “tafakkur”, “madaniyat” bo‘lmaydi, to‘g‘rirog‘i, ularning o‘zi bo‘lmaydi: ular o‘lik holda, harakatsiz, bir biridan ajralgan holda qoladi [2].

Qaysi narsaning birlamchi bo‘lganligini belgilash mumkin emas, biroq shunisi haqiqatki, tilsiz etnos bo‘lmaydi, til o‘lishi hamon etnos ham, madaniyat ham barbod

Har qanday madaniyatning yemirilishi, har doim aynan bir yo‘l - madaniyat elementlarining izolyatsiyalanishi yo‘li bilan sodir bo‘ladi, ya’ni, turmush sharoitlari o‘zgarishi natijasida simvolizm hayotni tark etganida madaniyatning ajralib qolgan elementi sifatidagi til ham shu asnoda halok bo‘lgan.

Shunday qilib, til, tafakkur va madaniyat o‘zaro shunchalik chambarchas bog‘lanib ketganki, amalda ular uchta tarkibiy qismdan iborat yaxlitlikni tashkil



qiladiki, bu tarkibiy qismlarning hech biri boshqa ikkita tarkibiy qismsiz faoliyat yuritishi (binobarin, amal qilishi) mumkin emas. Ularning hammasi birgalikda atrofdagi olam bilan o‘zaro nisbatda bo‘ladi, uni aks ettiradi va ayni bir vaqtda shakllantiradi. Bunda ular dunyo manzaralari deb ataladigan hodisalarni hosil qiladi.

O.N.Yermolayeva dunyoning tildagi manzarasi tadqiqotining ikkita negizini aniq tabaqalashtirish zarurligi haqida yozadi [3]:

1) bizdan tashqarida, bizga umuman bog‘liq bo‘lmasdan amal qiladigan, predmetlari o‘rtasida o‘ziga xos maxsus munosabatlar va aloqalar mavjud bo‘ladigan dunyo manzarasining tildagi aksi;

2) tildan bizdan tashqarida, predmetlari o‘rtasida o‘ziga xos maxsus munosabatlar va aloqalar mavjud bo‘ladigan bizga umuman bog‘liq bo‘lmasdan amal qiladigan dunyo manzarasining olinishi.

Dunyoning madaniy manzarasi bu real manzaraning insonning sezish organlari yordamida olingan va uning jamoatchilik hamda individual ongi orqali o‘tgan tasavvurlari negizida shakllantirilgan tushunchalar prizmasi orqali aks etishidir.

Dunyoning tildagi manzarasi voqelikni dunyoning madaniy manzarasi orqali aks ettiradi. Til - madaniyatning bir qismi, lekin madaniyat ham tilning faqat bir qismi. Demak, dunyoning tildagi manzarasi, mobodo madaniy manzara deganda biz inson ongida mujassam bo‘lgan dunyo obrazini, ya’ni, insonning jismoniy tajribasi va ma’naviy faoliyati natijasida yaratilgan dunyoqarashni tushunadigan bo‘lsak, unda to‘laligicha madaniy manzara bilan qamrab olinmagan. Shunday qilib, dunyoning madaniy va tildagi manzaralari o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, uzluksiz ravishda o‘zaro harakatda bo‘ladi va dunyoning real manzarasiga chiqib boradi.

S.T.Ter-Minasovaning fikricha, dunyoning milliy manzarasi uning tildagi manzarasiga nisbatan birlamchidir [1]. Milliy manzara tegishli tildagi manzaraga nisbatan to‘larok, boyroq va teranroqdir. Biroq aynan til dunyoning milliy-madaniy



manzarasini amalga oshiradi, verballashtiradi, uni saqlaydi va avloddan avlodga yetkazadi. Til dunyoning milliy qiyofasida mavjud bo‘lgan hamma narsani ham qayd qila olmaydi, lekin hamma narsani bayon qilishi mumkin. Bizning fikrimizcha, madaniyatning tilga nisbatan yoki, aksincha, tilning madaniyatga nisbatan birlamchiligi haqida gapirish maqsadga muvofiq emas. Aslida bular ikkita o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan “dunyo manzaralari” bo‘lib, sabab-oqibatli aloqalarning ularga nisbatan qo‘llanish mumkin emas.

Turli tillardagi ayni bir hil tushunchani ifodalovchi so‘zlar semantik sig‘imiga ko‘ra farqlanishi, voqelikning har hil parchalarini qamrab olishi mumkin. Dunyo manzarasini taqdim etadigan mozaika parchalari inson miyasida atrofdagi olam in’ikosi natijasida olingan tushunchali material hajmiga qarab turli tillarda farqlanishi mumkin.

S.T.Ter-Minasovaning fikricha, in’ikos usullari va shakllari ham tushunchalarning shakllantirilishi singari, o‘z navbatida, ushbu nutq jamoasi hayotining ijtimoiy-madaniy va tabiiy o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Til orqali tafakkurdagi tafovutlar aynan bir hil tushunchani ifodalash shakllarining ortiqchaligi yoki yetishmasligini sezishda namoyon bo‘ladi[1].

Y.D.Apresyan dunyoning tildagi “sodda” manzarasi haqidagi masalaning hozirgi holatini tavsiflab, bunday tadqiqotning ikkita asosiy yo‘nalishda ketayotganini qayd qiladi.

1. Bir tomondan, tilga oid va umumiy madaniy ong “stereotiplari”ning ushbu etnosga xos bo‘lgan ayrim jihatlari tadqiq qilinadi. Muallif ularni o‘ziga xos lingvomadaniy izoglosslar va izoglosslar turkumlari deb ataydi. Bular ko‘ngil, hasrat, taqdir, kechmish, iroda va shu kabi tipik jihatlardir. Boshqa tomondan, deb qayd qiladi muallif, bular nospetsifik jihatlarning o‘ziga xos konnotatsiyalaridir (masalan, turli madaniyatlardagi ranglar bilan ifodalanadigan ramzlar).

2. Ayni bir vaqtda til uchun xos bo'lgan dunyoga nisbatan garchi sodda bo‘lsada, lekin ilmiygacha bo‘lgan yaxlit qarashni izlash va qayta ta‘mirlash bo‘yicha izlanishlar bormoqda. Ya’ni, “umuman dialekt” tadqiq qilinayapti.



Muallifning fikricha, bu o‘rinda milliy o‘ziga xoslikning hisobga olinishida baribir “asosiy diqqat-e’tibor aynan shu dunyoning tildagi yaxlit manzarasiga qaratiladi”.

Hatto turli tillar qardosh bo‘lganida ham dunyoning til vositalari orqali idrok qilinishi va konseptuallashtirilishidagi tafovutlar jiddiy bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, turli tillarda dunyo manzaralari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Dunyoning tildagi manzarasida etnik mentalitet ushbu tilda so‘zlashuvchilarning atrofdagi dunyo haqidagi mental tasavvurini aks ettiradigan ramziy obrazlarda verballashgan “asosiy” madaniy konseptlarda dolzarblashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shayxislamov, N. JOY NOMLARINING PAYDO BO‘LISHI TO‘G‘RISIDA MULOHAZALAR. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(2), 60-63. 2021.

2. Анорбоева. С. ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕ ТЕНТНОСТИ ПЕРЕВОДЧИКА. PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR № 6 35-39. Toshkent 2023.

3. Шайхисламов, Н. УЗБЕК ТИЛИ АССОЦИАТИВ ЛУГАТИНИНГ ТУЗИЛИШИ ТУГРИСИДА МУЛО^АЗАЛАР. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(1), 20-25. 2021.